

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AXMEDOVA UMIDAXON YODGORJON QIZI

**TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING ALGORITMIK
FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta‘lim)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Axmedova Umidaxon Yodgorjon qizi

Texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining
algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasi3

Ахмедова Умидахон Ёдгоржон кизи

Методика развития алгоритмического мышления будущих учителей
начального образования на основе технологических заданий25

Akhmedova Umidakhon Yodgorjon kizi

The methodology for developing algorithmic thinking in future primary education
teachers based on technological tasks49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AXMEDOVA UMIDAXON YODGORJON QIZI

**TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING ALGORITMIK
FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta‘lim)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6310 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universitetining veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduqodirova Patmaxon Tursunboyevna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kadirova Munira Rasulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Tursunova Shaxzoda Baxromovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil "25" mart kuni soat 9:00'dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi 19-uy, Tel.: (+99873) 244-44-02; e-mail: info@fdu.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (480 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873)244-44-94, e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" mart kuni tarqatildi.
(2025-yil "14" mart dagi 18 -raqamli reyestr bayonnomasi)



B.Sh.Shermuhammadov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

T.Y.Bakirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d., dotsent

B.Q.Qurbonova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari va uning natijasida mamlakatlar, hududlar va xalqlar o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning integratsiyalashuvi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini kompyuter ta'limi bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlashning yangi metodikalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda algoritmik yondashuvning metodik imkoniyatlarini kengaytirish (Anqara universiteti, University of California), fikrlashning algoritmik uslubiga ustuvorlik berish asosida informatika fanlarini o'qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashning didaktik tizimini takomillashtirish (University Utara of Malaysia) hamda bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning tarkibiy tizimi sifatida ko'rib chiqishiga imkon beruvchi tizimli yondashuvlar (Belarussiya davlat universiteti) muhim dolzarblik kasb etadi.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarda algoritmik tafakkurni rivojlantirishda informatika fanlarini kasbiy sohaga yo'naltirib o'qitish metodikasini takomillashtirish, dasturiy-algoritmik kompetentlikni shakllantirish orqali raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning innovatsion didaktik modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda algoritmik mashqlardan foydalanishning metodik tizimini ishlab chiqish, informatika fanini o'qitishda algoritmik yondashuvning didaktik imkoniyatlarini vertikal va gorizontol yo'nalishlarda boyitib borishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni algoritmizatsiya va dasturlashtirishga doir faoliyatga maqsadli yo'naltirib borish orqali algoritmik xotiraning struktur modellarini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda aholining barcha qatlamlarida raqamli ko'nikmalarni uzluksiz shakllantirib borish, axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarini keng ommalashtirish, raqamli kompetensiyalarga ega yangi avlodni tarbiyalashning samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish" axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish, algoritmik kompetensiyalar asosida bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"¹, 2019- yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash to'g'risida" gi farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustovor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustovor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda umumta'lim maktablarida texnologik ta'limni tashkil etish va boshqarish mexanizmlari, K.Matyoqubov, O.Karimovlar, S.Abdullayev, Sh.Tursunova, U.Tumanov, T.Saidnazarova axborot ta'lim muhitida bo'lajak texnologiya o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi A.Allamuradov, F.To'rabekov, M.Ikromova maktabgacha yoshdagi bolalarning algoritmik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha, informatika o'qitish metodikasini takomillashtirish M.Allamberganova, J.Saidov, A.Abdugodirov, F.Zakirova, N.Xaytullayeva, D.Maxmudovalar mantiqiy tafakkur, boshlang'ich sinf o'quvchilarda algoritmik ko'nikmalarni shakllantirish J.Kodirov, R.Shodiyev, algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash N.Panjiyeva, P.Abdugodirova, N.Xaytullayevalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida o'quvchilarda algoritmik tafakkurni shakllantirishning pedagogik shartlarini Y.Sedelnikova, M.Kovrova, H.Yeremeevalar, fizika, matematika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitish jarayonida rekursiv algoritmlarni qo'llashga doir T.Lebedeva, N.Golikova, A.Stas. N.Dolganovalar, ta'limda tizimli faoliyat yondashuvini qo'llashga oid tadqiqotlar V.Elena, E.Soboleva, G.Sabirova, N.Babiyeva, M.Sergeeva, J.Torkunovalar tomonidan amalga oshirilgan.

Xorijlik olimlardan Yasemin Çakıcı, Soner Mehmet Özdemir kabilar boshlang'ich sinf o'quvchilarining algoritmik fikrlash ko'nikmalarini kodlash ta'limi asosida rivojlantirish, dasturlash tushunchalarining hisoblash va fikrlash qobiliyatidagi o'rni masalalarini Ümit Demir, Hakan Cevahirler, boshlang'ich ta'limda tezkor aqliy hisoblash tizimidan foydalanish imkoniyatlari esa Rushan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

Ziatdinov Sajid Musa, John F., Sanford, Professor Emeritus, Kürşat Yendlmezlar o‘rganishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi: Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan “Sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish” dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning psixologik-pedagogik va metodik xususiyatlarini ochib berish;

bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlash bosqichlari va funksiyalarini aniqlashtirish;

Muqobil+Variant+Imkoniyat texnologiyasi asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish;

texnologik topshiriqlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning metodik ta’minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Farg‘ona davlat universiteti, Urganch davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika institutining jami 282 nafar respondentlari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini texnologik topshiriqlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlarni tahlil qilish, muammoga doir asosiy tushunchalar tahlili, prognozlash, modellashtirish, retrospektiv tahlil, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinov, test, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning psixologik-pedagogik va metodik xususiyatlari talabalarning algoritmikaga doir shaxsiy tajribani shakllantirishga doir nazariy va amaliy, ta’lim oluvchilarning mazkur faoliyat turiga motiv, qiziqishlari intensivligini ta’minlaydigan psixologik tayyorlikning o‘zaro aloqadorligi va shartlanganligi empirik asoslash orqali aniqlashtirilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning analitik-tanqidiy tafakkurning chaqiriq, anglash va fikrlash bosqichlariga muvofiq o‘qitish strategiyalarini adaptiv qo‘llash mantiqiga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

Muqobil+Variant+Imkoniyat texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlash metodikasi bilimlarni mobilizatsiyalash, o'quv jarayonini tizimli loyihalash, topshiriqlar mazmuni variativligini ta'minlashga qaratilgan didaktik mexanizmning taktik va strategik maqsadlarining metavazifalar bilan identivligini hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini o'quvchilarning algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning metodik ta'minoti differensial, konstruktiv, geymifikatsiya, kollaborativ, refleksiya mezonlarga muvofiq baholashning innovatsion shakllari validligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining algoritmik fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Muqobil+Variant+Imkoniyat" texnologiyasi ishlab chiqilgan;

"Informatikaning nazariy asoslari" hamda "Matematika o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmalar yaratilgan;

bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik vositalari ishlab chiqilgan;

boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida algoritmik fikrlashni rivojlantirish orqali mustaqil o'quv faoliyatga tayyorlashga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi va ularning matematik-statistik tahlili, takliflarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida algoritmik fikrlashni shakllantirish orqali mustaqil o'quv faoliyatga tayyorlash masalalariga oid nazariy yondashuv, g'oyalar, tavsiyalar asosida texnologiya va matematika fanlari mazmuni boyitilganligi, Muqobil+Variant+Imkoniyat texnologiyasi asosida o'quvchilarning algoritmik fikrlashini rivojlanganligini baholash mezonlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati izlanishli-kreativ vaziyatlarni intensiv qo'llashga doir topshiriqlarning ishlab chiqilganligi, "Texnologiya" faninig algoritm tushunchasi va ijrochisi, algoritm qadami hamda uni tasvirlash usullariga oid topshiriqlar algoritm va dasturlash texnologiyasining talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning psixologik-pedagogik va metodik xususiyatlari talabalarning algoritmikaga doir shaxsiy tajribani shakllantirishga doir nazariy va amaliy, ta'lim oluvchilarning mazkur faoliyat turiga

motiv, qiziqishlari intensivligini ta'minlaydigan psixologik tayyorlikning o'zaro aloqadorligi va shartlanganligi empirik asoslash hamda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning analitik-tanqidiy tafakkurning chaqiriq, anglash va fikrlash bosqichlariga muvofiq o'qitish strategiyalarini adaptiv qo'llash mantig'iga doir takliflaridan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Matematika o'qitish metodikasi" nomli o'quv darslikni yaratishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug'i, 55195 raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda algoritmik fikrlashni shakllantirishga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

Muqobil+Variant+Imkoniyat texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlash metodikasi bilimlarni mobilizatsiyalash, o'quv jarayonini tizimli loyihalash, topshiriqlar mazmuni variativligini ta'minlashga qaratilgan didaktik mexanizmning taktik va strategik maqsadlarining metavazifalar bilan identivligiga doir taklif va tavsiyalaridan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Informatikaning nazariy asoslari" nomli o'quv darslikni yaratishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrgi 537-sonli buyrug'i 537493 raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni algoritmik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning metodik ta'minoti differensial, konstruktiv, geymifikatsiya, kollaborativ, refleksiya mezonlarga muvofiq baholashning innovatsion shakllari validligiga doir taklif va tavsiyalaridan FZ-2020010829-raqamli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" loyihasining dasturiy ta'minotini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada, OTMLlarda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga erishilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shundan 1 o'quv qo'llanma, 1 darslik hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 128 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasalari ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan

o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi va tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini algoritmik fikrlashini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari”** deb nomlanib, unda algoritmik fikrlash va uning - mohiyatini algoritmik fikrlash qobiliyati, algoritmik madaniyatning ahamiyati, raqamli tafakkur, o'quvchilarida mantiqiy masalalar tuzishni o'rgatish jarayonida algoritmik fikrlashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda talabalarning algoritmik madaniyatining zarur elementlarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni aniqlash va ta'minlash uchun amaliyotga yo'naltirib o'qitishni rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifa ekanligi tahlil etilgan.

Boshlang'ich ta'limda algoritmik fikrlashga doir ilmiy ishlar turk olimi Adem Dog'anning ishlarida ko'rishimiz mumkin. Olimning ta'kidlashicha, “algoritmik fikrlash – bu qadamlarni aniq belgilab, yechim topish usulidir. Muammoni tahlil qilish, uning yechimlarini amalga oshirish va yangi yechim ishlab chiqish jarayonidir”.

Y.Sedelnikova, M.Kovrovalar “Ikkinchi sinf o'quvchilarida mantiqiy masalalar tuzishni o'rgatish jarayonida algoritmik fikrlashni shakllantirish” tadqiqot doirasida 2-sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar tuzishga o'rgatish orqali algoritmik tafakkurni shakllantirishning pedagogik shartlarini aniqlashtirgan hamda “algoritmik fikrlash”, “algoritm”, “mantiqiy masalalar” tushunchalarini ochib bergan. 2-sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar tuzishga o'rgatish jarayonida algoritmik fikrlashni shakllantirish bo'yicha eksperimental dastur ishlab chiqqan va uning samaradorligini aniqlagan.

N.Yeremeyeva “Формирование алгоритмического мышления у школьников в ходе групповой работы” tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasini tatbiq qilgan. Ushbu fikrlash turini kichik guruhda shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Muallif algoritmik fikrlashga quyidagicha ta'rif bergan: “Algoritmik fikrlash – bu nazariy va amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan aqliy harakatlar va texnikalar tizimi bo'lib, ularning natijasi algoritmlar inson faoliyatining o'ziga xos mahsulotidir.

J.Kodirov “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida algoritmik ko'nikmalarni shakllantirish metodlari” tadqiqot doirasida “maktab o'quvchilarida ta'lim mazmunining asoslarini shakllantirishning eng samarali va qulay vositalaridan biri ularning algoritmik ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat” ekanligini ta'kidlab o'tgan. Biz algoritmik ko'nikmalar deganda o'quv jarayonida mavjud bo'lgan murakkab harakatlarni elementar tarzda bir nechta bosqichlarga bo'lish qobiliyatini tushunamiz.

J.Qodirov tadqiqotlari doirasida algoritmik madaniyat tarkibini quyidagi komponentlarga ajratib bergan:

“Motivatsion-qadriyatli – insonning individual muammolarini hal qilish algoritmini tushunishga asoslangan holda individual tanlov va harakatlarga tayyorligi;

kognitiv – insonning predmetli, axborotli va algoritmik tayyorgarligi;

texnologik – ma'lum axborot sharoitida o'qitishning optimal variantini topish, algoritmik mashg'ulotning didaktik birliklarini ajratib ko'rsatish, algoritmlardan

foydalanishni talab qiladigan axborot texnologiyalari va faoliyatiga qiziqishni rivojlantirish qobiliyati;

kommunikativ – ma'lumotlar almashinuvi, inson bilan kompyuter o'rtasida konstruktiv muloqot kabilar kiradi.”

F.To'rabekov tadqiqotlari doirasida axborot ta'lim muhitining yangi, zamonaviy turi, axborot ta'lim muhiti esa dinamik shakllanish va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi natijasi ekanligi haqida fikr yuritadi va axborot ta'lim muhitiga quyidagicha ta'rif beradi:

“Axborot ta'lim muhiti – bu dasturli kommunikatsion muhitdan iborat bo'lib, u ixtiyoriy sondagi ta'lim muassasalarining ta'lim darajasi va kasbiy jihatdan ixtisoslashuvidan qat'iy nazar, ularning axborotli ta'minoti va internet muhitidagi dalillar bilan asoslangan o'quv jarayonini olib borishning yaxlit texnologik vositalari majmuasidan iboratdir. Axborot ta'lim muhiti deganda, biz axborot infratuzilmasini, axborot kommunikatsiya texnologiya vositalarini va ta'limni tashkil etishning interfaol shakllarini rivojlantirishga asoslangan ochiq pedagogik tizimni tushunamiz, bu esa, ta'lim jarayoni subyektlarining faol pedagogik o'zaro hamkorligiga erishishga yordam beradi”.

M.Ikromova kichik yoshdagi bolalarning algoritmik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining integratsiyasini ta'minlash lozim. Kichik yoshdagi bolalarning algoritmik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda kompyutersiz va kompyuterli faoliyatdan birgalikda foydalanish yaxshi samara beradi.

Tadqiqot doirasida “Raqamli tafakkur” tushunchasi aniqlanib, quyidagicha ta'riflandi: “Raqamli tafakkur – muammoni aniqlash, uni hal etish usulini ma'lumotni qayta ishlovchi vositalar uchun tushunarli tarzda ifodalash va natijani olish jarayonida shakllanuvchi tafakkur shaklidir”.

R.Shodiyev, J.Qodirovlarning “Maktabgacha yoshdagi bolalarda algoritmik ko'nikmalarni shakllantirish muammosining dolzarb holati va yechimlari” tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotida o'qitishning zamonaviy maqsadlariga asoslanib, ta'lim faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni va bola shaxsiyatining fazilatlarini shakllantirishdagi jihatlari ochib berilgan. Algoritmik ko'nikmalar odamning algoritmik fikrlashi, algoritmik qobiliyatlari va algoritmik madaniyatini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Shu o'rinda algoritmik madaniyatga to'xtaladigan bo'lsak, N.Panjiyevaning ilmiy ishlarida talabalarning algoritmik madaniyatini tarkibiy qismlari tahlil qilingan. Muallif “talabaniing algoritmik madaniyatini 4 ta qismga bo'lib ko'rsatib bergan. Ya'ni,

- algoritm mohiyatini va uning xossalarini tushunish;
- tilning mohiyatini algoritm yozish vositasi sifatida tushunish;
- algoritmlarni yozib olish texnikasi va vositalarini bilish;
- matematik usullarning algoritmik mohiyatini va ularning qo'llanilishini tushunish”.

Demak, talabalarning algoritmik madaniyatining zarur elementlarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni aniqlash va ta'minlash uchun amaliyotga yo'naltirib o'qitishni rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning algoritmik fikrlashini shakllantirishga tayyorlashning metodik xususiyatlarida algoritmik

tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi masalalar yechish jarayonida yuzaga kelish jarayoni bayon qilingan. Fikrlashning algoritmik usuli nafaqat matematika darslarida, balki texnologiyani o‘qitishda ham shakllanadi.

Texnologik ta’limning ahamiyati:

Texnologik ta’lim o‘quvchilarning texnika va texnologiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan. Bu ta’lim turi o‘quvchilarni quyidagi sohalarda rivojlantiradi:

- ijodiy fikrlash;
- muammolarni mustaqil ravishda hal qilish;
- texnik bilimlarni oshirish;
- amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Algoritmarni tushuntirishda vizual vositalardan foydalanish juda samaralidir. Blok-sxemalar va diagrammalar algoritm qadamlarini aniq va tushunarli qilib ko‘rsatishga yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari o‘quvchilarga algoritmarni real hayotda qo‘llashni o‘rgatadi. Masalan, kod yozish va undagi xatolarni topish algoritmarni tushunishning amaliy usullaridan biridir. Algoritmarni turli jarayonlarda qo‘llash va ularning samaradorligini tahlil qilish o‘quvchilarning tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Algoritm, matematika, axborot texnologiyalari, biologiya va boshqa sohalardan misollar keltirish o‘quvchilarga algoritmarning universalligini tushunishga yordam beradi.

Biz tadqiqotimizda induktiv va deduktiv xulosa chiqarish qobiliyatiga oid topshiriqlarni yechish asosida algoritmik fikrlashni shakllantirganmiz.

Algoritm tuzishni o‘quvchilarga tushuntirgandan so‘ng qanday bajaradi?

Dastlab o‘quvchiga algoritm tushunchasi tushuntiriladi. Bu misolda chiziqli algoritm qo‘llaniladi. Bu haqida to‘liq ma’lumot beriladi. Shundan so‘ng yasash tartibi o‘quvchilardan so‘raladi. O‘quvchilarning fikrlari o‘qituvchi tomonidan umumiy lashtiriladi, ya’ni quyidagi algoritm tuziladi:

1. Istalgan rangdagi karton qog‘oz olish.	2. Ayiqchanning tanasini chizish.
3. Ayiqchanning boshini chizish.	4. Ayiqchanning qo‘llarini chizish.
5. Oyoqlarini chizish.	6. Chizilgan qismlarni qirqib olish
7. Qismlarni taxminiy joylashuvini tekshirib olish.	8. Ayiqchanning tana a‘zolarini birlashtirish kerak bo‘lgan nuqtalarni belgilab olish
9. Belgilangan nuqtalarni igna bilan teshish.	10. Teshilgan nuqtalarga barcha qismlarni ip bilan biriktirish.

Yakuniy natija oyoq-qo‘llari qimirlaydigan ayiqcha. Bu animatsiya algoritmiga misol bo‘ladi.

Yuqoridagi berilgan topshiriqni bajarish ketma-ketligidan birortasi shakllanmasa, bizning fikrimizcha, topshiriqni bajarish deyarli imkonsiz bo‘lib qoladi.

Metodik xususiyatlar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida algoritmik fikrlashni rivojlantirish uchun metodik ta'minot va dars jarayonlarining strukturasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi metodik yondashuvlar boshlang'ich ta'limda algoritmik fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo'lib, ularning muvaffaqiyatli qo'llanilishi ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Metodik xususiyatlar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim. Bunda o'zbek olimlarining tadqiqotlari ta'lim jarayonini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini algoritmik fikrlashni rivojlantirishga tayyorlashning metodik asoslari”** deb nomlanib, unda algoritmik fikrlashni shakllantirishga oid usullar (tahlil usuli, taqqoslash usuli, abstraksiya usuli) o'quv jarayoniga texnologik vazifalarni joriy etishning amaliy jihatlari, “Texnologik topshiriqlarni tanlash va yaratish hamda texnologik vazifalar asosida o'quvchilarning algoritmik tafakkurini shakllantirish modeli” ishlab chiqildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining algoritmik fikrlash elementlarini o'quv jarayoniga samarali joriy etish imkonini beruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasining vazifa tavsiflari texnologik vazifalar ekanligi asoslandi. Texnologik vazifa tushunchasi aniq belgilangan vaziyat, bir necha yechish usullari, jarayonlarni tizimlashtirish zarurati, tayyor algoritmdan foydalanish zarurati, natijalarni tekshirish zarurati, qiyinchilik va ijodkorlikning mavjudligi kabi xususiyatlarga ega ekanligi belgilandi. Aynan ushbu qismlarni o'z ichiga olgan model ishlab chiqildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarning algoritmik tafakkurini shakllantirish masalasining holati tahlil qilinadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning algoritmik tafakkurini yo'lga qo'yish bo'yicha tayyorgarlik ko'rish uchun ularni tayyorlash jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyasini joriy etish maqsadga muvofiqligi tadqiqot natijalari asosida nazariy jihatdan asoslab berilgan va eksperimental tarzda isbotlangan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorgarligiga nisbatan ta'lim jarayonini strukturalash texnologiyasi nazariy asoslanib, ularni tayyorlash uchun texnologik vazifaning xarakteristikalarini belgilab berildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning algoritmik tafakkurini shakllantirishga tayyorlash uchun texnologiya bosqichlari amalga oshirildi va tavsiflandi. Didaktik modelning asosiy tushunchalari shu abstrakt o'quv jarayonining, o'quvchining mahorat va maqsadlariga muvofiq rivojlanishi, o'quvchilarda algoritmik fikrlashni shakllantirishga tayyorlash jarayonidan boshlandi. Bu jarayon o'quv maqsadlari, tafakkurni rivojlantirish va algoritmik fikrlashni o'rganishning usullari, didaktik modelning tuzilishi, boshlang'ich sinovlar, o'quvchilarning mahorati, algoritmik fikrlashni o'rganishning texnologik vositalari va amaliyotda ijrosi boyicha tushunchalardan iborat.

Didaktik model elementlari. Didaktik model elementlari o'quv jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu elementlarni maqsadlar, darslarning tuzilishi, o'quvchilarning mahorati va algoritmik fikrlashni o'rganishning texnologik vositalari shakllantiradi.

Elementlarning bir-biriga mosligi va to'g'ri o'rinlanishi o'quv jarayonining samaradorligi uchun juda muhimdir. Didaktik model elementlari o'quvchilar va

o'qituvchi uchun adaptiv bo'lishi, ya'ni oson, qiyin va ortiqcha tayyorgarlikka ega bo'lish lozim bo'lgan va shart bo'lmagan turda bo'lishi kerak. O'quvchilar o'rtasida hamkorlik va jamoaviy, guruhiy munosabatlar qurish, bilimlarni yanada oshirib borish, o'quvchilarning o'ziga xos kuchlarini belgilash hamda ularni o'zlashtirish yoki o'z qonuniy ishlarini tuzatish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bu o'quv jarayonidagi e'tiborli jihatdir. Xususan, kompleks masalalar yechishni o'rganish va topshiriqlarni tuzatishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qiyinchiliklarni yechishda o'quvchilar yillar davomida o'qishi kerak.

Maqsadlar o'quvchilar uchun belgilangan topshiriqlarni o'zlashtirishi, algoritmik fikrlashni o'rganish, texnologik vositalar bilan ishlash va rivojlanishga qaratilgan bo'ladi. O'quvchilarning qo'yilgan maqsadlarni tushunishi va ularga qaratilgan vazifalarni bajarish orqali, ular kerakli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'zlashtiradilar hamda rivojlantirishlari mumkin bo'ladi.

O'quvchilar mustaqil fikrlashini shakllantirish. O'quvchilar mustaqil tafakkurini shakllantirishning muhim vazifalari ma'lum. Bu jarayon o'quvchilarning o'zlari yaratgan ishlarini, algoritmik fikrlarini, muammolarini yechish, mulohazalarni guruhli-hamkorlikda baholash, muhokama qilish va muntazam ravishda baholab borish asosida olib boriladi. Bu esa ularga mustaqil fikrlashni bevosita rivojlanishiga yordam beradi.

Algoritmik fikrlashni shakllantirish metodlari. Algoritmik fikrlashni o'rganishning muhim usullari o'quvchilarga amaliy yordam berish, muammolar va vaziyatlarni yechishning eng qulay yo'llarini ko'rsatish, ularni algoritmlar yaratishga rag'batlantirish, topshiriqlarni bajarish orqali, o'zlashtirish, qayta fikrlash va yangi yechimlar qidirishda ularga yordam beradi. Bu usullar o'quvchilar uchun algoritmik fikrlashda samarali bo'lish uchun muhimdir.

Didaktik modelning tuzilishi. Didaktik model o'quv jarayonini tashkil etishning boshqa bir shakli bo'lib, o'qituvchining o'quvchiga bilim olishi va tushunarli ma'lumotlarni uzatishini ta'minlaydi. Model o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi munosabatlarning hamda o'quv jarayonining boshqa ko'nikmalarini tuzishda yordam beradi.

O'quvchilarning fikrlay olish qobiliyati. O'quvchilarning qobiliyatlari algoritmik fikrlashni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ular fikrlash va muammolarni hal qilishda, ma'lumotlarni ajratishda va muammolarga yechim topishda o'zlariga ishonchli hamda muvofiqlashgan bo'lishlari uchun zamin yaratadilar.

Algoritmik fikrlashni shakllantiruvchi texnologik vositalar. Algoritmik fikrlashni o'rganishda texnologik vositalar, masalan, kompyuter dasturlari va online platformalar katta yordam beradi. Bu vositalar o'quvchilarga muammolarni yechish va algoritmik fikrlash ko'nikmalarini o'rganishda yordam beradi va ularni amaliy ravishda tajriba qilishga imkon beradi. Modelda bu haqida yoritilgan.


Didaktik modelning amaliyotga joriy qilinishi. Didaktik model amalga oshirish o'quvchilarga eng muhim bo'lgan algoritmik fikrlashni shakllantirish uchun ahamiyatli. Ushbu bosqichda, o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini rivojlantirish, aniqlik va samaradorlikni ta'minlash uchun darslarni tayyorlash hamda amaliyotda o'zlashtirish uchun turli metodlar va mashg'ulotlarni qo'llaydi. Ushbu bosqich o'quvchilarning algoritmik fikrlashini qo'llab-quvvatlaydi va ularga bu muhim ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Topshiriqlar va mashqlar. Topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarning algoritmik fikrlashini shakllantirishning muhim qismidir. Topshiriqlar o'quvchilarga muammolarni o'rganish, algoritmlar va kodlashning asoslarini o'rganish uchun samarali vazifalar beradi. Mashqlar esa, o'quvchilarga algoritmik fikrlashni rivojlantirish uchun nazariy bilimlar, masalalar yechish va hisoblash uchun texnikalarni o'rgatishda muhim bo'ladi. Ushbu jarayon o'quvchilarga dastlabki fikrlash va muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu topshiriqlar o'quvchilarni yorqinlashtirish, rivojlantirish va murabbiylar bilan muloqot qilish qobiliyatlarini ham jiddiy ravishda oshiradi. Ushbu mashqlar va topshiriqlar o'quvchilar uchun interaktiv o'rganishning muhim qismlarini tashkil etadi va ularning algoritmik fikrlashlarini o'zlashtirishga yordam beradi. Bu esa, o'zlashtirilgan fikrlash va kompyuter texnologiyalari bilan tanishish o'quvchilar uchun ham muhim bo'ladi. Bu yo'naltirilgan topshiriqlar va mashqlar, o'quvchilarning qo'shimcha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat beradi va ularning konsentratsiyasini, tahlil va muhokama qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, o'quvchilar topshiriqlar va mashqlar, kafolatlangan algoritmlar bilan ishlash paytida tajribali va samarali bo'lishadi. Shunday qilib, topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarning algoritmik fikrlashini mustahkamlashda o'ziga xos o'rin egallaydi. Qo'shimcha topshiriqlar va mashqlar, algoritmlar va kodlash tufayli o'quvchilarga murakkab fikrlash, logika va mustahkamlash qobiliyatlarini egallashlariga hissa qo'shadi. Bu esa ularning kamchiliklarni bartaraf etish hamda muhim muammolarni yechishda yordam beradi. Ushbu jarayon o'quvchilarning texnologik va hayotiy sohalardagi malakasini oshiradi va faoliyatga tayyorlaydi.

Texnologik vositalar bilan ishlash. Algoritmik fikrlashni shakllantirishda texnologik vositalar katta ahamiyatga ega. Ular, kompyuter dasturlari, veb-saytlar, onlayn platformalar va boshqa texnologik vositalar orqali o'quvchilarning algoritmik fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Bu vositalar o'quvchilarni amaliyotda algoritmik vazifalarni yechish, dasturlarni yaratish va xato-tuzatish jarayonida maslahat berishga imkon beradi.

Natijalar va baholash. Didaktik model ijrosining natijalari o'quvchilarning algoritmik fikrlashini shakllantirishga qanchalik muvofiq bo'lishini o'lchashda muhim ahamiyatga ega. Natijalar o'quvchilarning algoritmik fikrlash darajasini, darsda o'rgangan bilim va ko'nikmalarini o'rganish darajasini ko'rsatadi. Baholash esa, o'quvchilarning rivojlanishini hisobga oladi va o'qituvchi uchun keyinchalik darslar to'g'risida maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Biz tomonimizdan taklif etilayotgan modelda baholash Blum taksonomiyasining kategoriyalari asosida adaptiv baholashga asoslangan.

Didaktik modelning natijalari va mustaqillikni rivojlantirish. Didaktik modelning natijalari va mustaqillikni rivojlantirish qismida, o'quvchilarning algoritmik fikrlashini shakllantirishdagi mustaqil ta'lim jarayoni tushunchalari va ularning natijalari amaliyotda qanday aniqlikda namoyish etilishi hamda qanday kutilgan natijalar olishlari kerakligi tahlil qilindi. Bu bo'limda o'quvchilarning algoritmik fikrlashini shakllantirish uchun belgilangan maqsadlarga erishishning o'yinlar va vositalar orqali moslashtirilishi hamda ta'lim jarayonida algoritmik fikrlashni tizimli va moslashtirilgan o'rganish vositalari bo'yicha olib borilishi kerakligi tushuntiriladi.



2.2.1-jadval. Texnologik vazifalar asosida o'quvchilarning algoritmik tafakkurini shakllantirish modeli

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayoni murakkab va ko'p qirrali yondashuvlarni talab qiladi, chunki bugungi kun o'quvchilari nafaqat bilim olishga, balki muammolarni tahlil qilish va algoritmik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu boisdan Muqobil+Variant+Imkoniyat texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini algoritmik fikrlashni shakllantirishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.


Muqobil+Variant+Imkoniyat texnologiyasining mohiyati. Mazkur texnologiya o'quv jarayonini tizimli loyihalashtirish va topshiriqlar mazmunini variativlik asosida taklif qilishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Muqobil komponenti. Muqobil komponent dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda alternativ yondashuvlarni qo'llashga asoslangan. Ushbu yondashuv o'quvchilarga bir masalani turli usullar bilan yechish imkoniyatini beradi. Bu komponent yordamida o'quvchilar bir vaqtning o'zida bir necha yo'lni sinab ko'rish orqali tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga alternativ yondashuvlar o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashgan ta'lim jarayonini tashkil qilish imkonini beradi.

Variant komponenti. Variant komponent dars mazmunini bir nechta variantlarda taqdim etish orqali o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga oladi. Ushbu komponent ta'lim jarayonida moslashuvchanlikni oshirishga xizmat qiladi, chunki u o'quvchilarga o'z qobiliyatlari va qiziqishlariga mos keladigan variantni tanlash imkonini beradi. Variant komponentning qo'llanilishi o'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtirokini oshiradi, ularda mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Imkoniyat komponenti. Imkoniyat komponent esa o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini maksimal darajada namoyon qilishlari uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Ushbu yondashuv har bir o'quvchining shaxsiy potensialini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularga mos sharoitlarni ta'minlash orqali samarali natijalarga erishadi. Bu komponent iqtidorli o'quvchilar uchun qo'shimcha vazifalar va murakkab topshiriqlarni taklif qilish, o'rganish qiyinchiliklariga duch kelgan o'quvchilar uchun esa moslashtirilgan yondashuvlar yaratish imkonini beradi.

Muqobil+Variant+Imkoniyat texnologiyasi asosida o'quvchilarning algoritmik fikrlashini shakllantirishga yo'naltirilgan metodika zamonaviy boshlang'ich ta'lim talablariga mos ravishda takomillashtirilgan. Ushbu metodika o'quv jarayonining strategik va taktik maqsadlarini integratsiya qilish, topshiriqlar mazmunini variativlik asosida taqdim etish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Metodikaning amaliy qo'llanilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish bilan birga, algoritmik tafakkurga asoslangan innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.



2.3.3-rasm. **Muqobil+Variant+Imkoniyat metodini amalga oshirish mexanizmi**

Boshlang'ich ta'limda texnologiya o'qitish metodikasi va algoritmik fikrlashni rivojlantirish. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida texnologiya o'qitish metodikasini o'rgatishda texnologik topshiriqlardan foydalanish asosida algoritmik fikrlashni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Ushbu metodika o'quvchilarning matematik tafakkuri va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tanlangan mavzular doirasida amalga oshiriladi. "Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi" kursi ham 2-3 kurs davomida olib boriladi. Ushbu kursda "Harakatli o'yinchoqlar yasash", "Loyihalash va modellashtirish", "Qog'oz va karton bilan ishlash" kabi mavzular asosiy o'rin egallaydi.

